



O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2025-YIL, 2-SON

journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'. Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dots. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, Faks: (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. Jurnal Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008. "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnalining 2025-yil 2-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 10-may 2025-yildagi 5-sonli kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 5). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

ZAMONAVIY PEDAGOG KOMPETENSIYASI: BUGUNGI KUN TALABI

Abdualiyeva Jasmina Abduqaxxor qizi

ChDPU "Pedagogika" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

+998770993442

Ilmiy rahbar: S.N.Jamoldinova

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0006-4669-0483>

jamoldinova.cspu@gmail.com,

Anotatsiya Har bir ta'lim tizimida o'qituvchilar sog'lom va ijobiy ta'lim muhitini yaratish uchun mas'uldirlar. Demak, o'qituvchilarning kasbiy malakalari bo'lishi zarur. Ushbu maqolada siz mavzuga oid kompetensiyalar, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish, muloqot ko'nikmalari, tadqiq qilish va AKTdan foydalanish kabilar shu bilan birga kasbiy kompetensiyani shakllantirish zamonaviy pedagogning kompetensiyasi qanday tarkibiy qismlardan iboratligi, amaliyotda bu kompetensiyalar qanchalik rivojlanganligi va pedagoglarning o'z ustida ishlash holati empirik tadqiqot asosida qanday tahlil qilinishi haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar : Zamonaviy pedagog, pedagogik kompetensiya, kasbiy kompetensiya, empirik tadqiqot mentorlike un'iy intellect ,virtual reallik malaka oshirish ,xalqaro tajriba, kompetentlik, uzluksiz ta'lim.

MODERN TEACHER COMPETENCE: TODAY'S DEMAND

Abstrak In every education system, teachers are responsible for creating a healthy and positive learning environment. Therefore, teachers must have professional qualifications. In this article, you can learn about the components of the competence of a modern teacher, including subject-specific competencies, curriculum development and implementation, communication skills, research and the use of ICT, as well as the formation of professional competencies, how these competencies are developed in practice, and how the state of teachers' self-improvement is analyzed based on empirical research.

Keywords: Modern pedagogue, pedagogical competence, professional competence, empirical research, mentorlike unique intellect, virtual reality professional development, international experience, competence, continuing education.

КОМПЕТЕНТНОСТЬ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ: СЕГОДНЯШНИЙ ТРЕБОВАНИЕ

Аннотация: В каждой системе образования учителя несут ответственность за создание здоровой и позитивной среды обучения. Поэтому учителя должны иметь профессиональную квалификацию. В данной статье вы сможете узнать о компонентах компетентности современного учителя, включая предметные компетенции, разработку и реализацию учебных программ, коммуникативные

навыки, исследовательскую деятельность, использование ИКТ, а также о формировании профессиональных компетенций, о том, насколько эти компетенции развиты на практике, и как на основе эмпирических исследований анализируется состояние самосовершенствования учителей.

Ключевые слова: Современный педагог, педагогическая компетентность, профессиональная компетентность, эмпирическое исследование, наставникоподобный уникальный интеллект, виртуальная реальность профессионального развития, международный опыт, компетентность, непрерывное образование.

KIRISH

Zamonaviy davrda ta'lim tizimi jadal rivojlanmoqda, bu esa pedagoglar oldiga yangi talab va vazifalarni qo'yadi. Global integratsiya, raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, shuningdek, o'quvchilarning ehtiyojlaridagi o'zgarishlar pedagogik faoliyatning yondashuvlariga yangicha qarashni talab qilmoqda. Endilikda oddiy bilim beruvchi emas, balki o'quvchini har tomonlama rivojlantiruvchi, innovatsion fikrlashga yo'naltiruvchi pedagog zarur bo'lib qoldi.

Zamonaviy pedagog faqat o'z fanini puxta bilishi bilan cheklanmasdan, metodik, kommunikativ, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni egallagan, muammoli vaziyatlarni hal qila oladigan, shuningdek, doimiy kasbiy o'sishga tayyor bo'lishi kerak. Bunday kompetensiyalar majmuasi pedagogik kompetensiya deb yuritiladi. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda pedagog kompetensiyasining roli beqiyosdir. Asrimizning dastlabki yillarida kadrlar asosan bilim, ko'nikma hamda malakalariga qarab baholangan bo'lsa, so'nggi yillarda barcha bilim va insoniy fazilatlar majmuyi sifatida kompetensiyasi yoki kasbiy kompetentligi baholanmoqda. O'zbekiston Respublikasida xalqaro talablarga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, yoshlarni egallagan sohasidan kelib chiqib munosib ish o'rni bilan ta'minlash, zarur hollarda egallagan kasbiy darajasiga qarab xorijiy mamlakatlarda ham ish bilan ta'minlash masalalarini hal qilish maqsadida muhtaram prezidentimiz tomonidan PF-5812-sonli prezident farmoni qabul qilingan. Unda "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi[1] asosida YUNESKO tashkiloti tomonidan tashkil etilgan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST)ga mos yangi professional ta'lim muassasalarini tashkil etish asosiy vazifa sifatida belgilangan edi. Shuni inobatga olgan holda 2020-2021-

o'quv yilidan xalqaro tasniflashning 3-darajasiga mos keluvchi boshlang'ich(kasb-hunar maktabi), 4-darajadagi o'rta(kollej) va 5-darajadagi o'rta maxsus(texnikum) professional ta'lim muassasalari tashkil etildi va bu respublika bo'ylab keng miqyosda yo'lga qo'yildi.[2] Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarini zamon talablariga to'la javob bera oladigan, raqobatbardosh kadr sifatida yetishishi avvalo ularga ta'lim beruvchi pedagoglarning tayyorgarlik darajasi, bilimi, kasbiy kompetensiyalarining shakllanganligi bilan uzviy bog'liqdir. O'qituvchilardan doimo o'zgaruvchan vaqtga moslasha olish talab etiladi. Bu shuni anglatadiki o'quv dunyosi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishiga moslashdi. Bugungi raqamli davrda u talaba xatti-harakatlariga katta ta'sir qiladi, shuning uchun kerakli belgi shakllanishi ham tartibga solinishi kerak. Raqamli davrga duch kelish uchun ta'lim muassasalari paradigmami o'zgartirishi kerak, ayniqsa, ta'lim sohasida o'qituvchilar o'quv materiallarini etkazib beruvchi sifatida o'z vazifalarini minimallashtiradilar. Zamonaviy pedagoglarning shu va shunga o'xshash talablarga javob berishi uchun tinimsiz izlanishi va o'zidagi kompetensiyani shakllantirishi lozimdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil – ilmiy adabiyotlar va amaliy materiallar asosida kompetensiya tushunchasining mazmuni ochib berildi;solishtirma tahlil – xalqaro tajriba bilan milliy yondashuvlar taqqoslandi;kuzatuv va so'rovnoma – amaliyotchi pedagoglarning fikrlari o'rganildi.

1. Amaliy mashg'ulotlar Darslarda faol ishtirok etish.O'quvchilar bilan interaktiv metodlardan foydalanish (rol o'ynash, muammo yechish).Pedagogik amaliyot va stajirovkalar.
2. Trening va seminarlarKasbiy malakani oshirish kurslari.Kompetensiyaga yo'naltirilgan treninglar (kommunikatsiya, liderlik, stressni boshqarish).Innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha seminarlar.
3. Mustaqil ta'lim va o'zini rivojlantirishProfessional adabiyotlar va maqolalarni o'qish. Onlayn kurslar,vebinarlar va videodarslar. Portfolio yuritish va o'z faoliyatini tahlil qilish.
4. Mentorlik va tajriba almashish Tajribali o'qituvchilardan o'rganish (ustashogird tizimi). Kollegial kuzatuv va tahlil (masalan, darsga kirib kuzatish va fikr almashish).

NATIJALAR

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo ta'limini yangilashning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko'ra olish, unda tizimli faoliyat ko'rsatish, yangi yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir. Kompetensiya tushunchasi umuman olganda qobiliyat deb qaralsa, bu qobiliyatni faoliyatga kasbiy jarayonga aylantiriladi. O'z -o'zidan Kasbiy kompetensiya jarayoniga aylanadi. Har qanday pedagogik jarayoni tashkil etishga tayyorlanayotgan talabalar o'zlashtirgan bilim ko'nikma malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida talim oluvchining bilmaslikdan bilishga tomon, oddiydan murakkabga tomon, uncha tuliq bo'lmagan bilimdan ancha to'liq, aniqroq va chuqurroq bo'lgan bilim tomon sodir bo'ladigan jarayondir. Bu ta'lim beruvchi rahbarligida amalga oshiriladi. Ta'lim beruvchi bilim

egallash yo'llarini talim oluvchilarga ko'rsatadi, ya'ni kishilik jamiyati tomonidan bor, hamda bunday bilimlarga ega bo'lmagan bola ongida vositachilik qiladi. Ta'lim beruvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi. Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Pedagogik Kompetensiyaning Talabalarga Ta'siri Pedagogik kompetensiya yuqori bo'lgan o'qituvchilar ta'lim jarayonida talabalar bilan samarali ishlay oladi. Tadqiqotlarga ko'ra, yuqori pedagogik kompetensiyaga ega bo'lgan o'qituvchilar sinfda motivatsiya va ijodiylik muhitini shakllantira oladi (Shulman, 1987). Bu esa o'z navbatida talabalarning mustaqil fikrlashi va muammolarni hal qilish qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida muammoga asoslangan o'qitish (PBL – Problem-Based Learning) metodidan foydalanish natijasida ularning o'z kasbiy sohalarida mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari 40% ga oshganligi kuzatilgan (Barrows, 1986).

Pedagogik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Trening va seminarlar – o'qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlar bo'yicha tajriba almashish imkoniyatini beradi.
- Amaliy mashg'ulotlar – pedagogik faoliyatda real tajriba orttirish uchun muhim ahamiyatga ega.
- Mentorlik va coaching – tajribali o'qituvchilarning yangi kadrlar bilan ishlash tizimi.
- Interaktiv ta'lim metodlari – o'yinlar, jamoaviy muhokamalar, simulyatsiyalar orqali o'qituvchilarning kasbiy yondashuvlarini rivojlantirish.

Pedagogik kompetensiyaning innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyasi Bugungi kunda ta'lim sohasida texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Shuning uchun

o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi:

- Onlayn ta'lim platformalari – Moodle, Coursera, EdX kabi tizimlar orqali masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etish.
- Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari – talabalar bilimni samarali baholash imkonini beradi.
- Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari – fanlarni amaliy tajribalar orqali o'rgatish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. 5.

Pedagogik kompetensiya shakllantirish jarayonida o'qituvchi quyidagi asosiy rollarni bajaradi: • • •

- Trener – bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.
- Motivator – talabalarni o'qishga rag'batlantirish.
- Murabbiy – shaxsiy va kasbiy rivojlanishga yo'naltirish.
- Tahlilchi – ta'lim jarayonining samaradorligini baholash va takomillashtirish.

MUHOKAMA

Pedagoglarda kompetensiyani shakllantirish bo'yicha turli xil nazariyalar va ma'lumotlar mavjud. AQSh va Yevropa mamlakatlari pedagog olimlariga nisbatan Rossiya olimlari kasbiy kompetensiya masalalariga mukkasidan ketganligi yaqqol ko'rinadi. V.Slastenin, I.Isaev va boshqalar tomonidan yozilgan "Pedagogika" nomli o'quv qo'llanmasining 3-bobi "Pedagogning kasbiy kompetensiyasi" ga bag'ishlanib, bu tushuncha va mahorati haqida fikrlar beradi. Mualliflarning ta'kidlashicha, pedagogik kompetensiya tizimi, amaliy va nazariy tayyorgarligi, pedagogning kasbiy kompetensiyasi kasbi boshqaruvchi va shakllantiruvchi xususiyatga ega. Shaxs shakllanishini boshqarish kompetentlikni talab qiladi. Bu o'zida o'qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligini jamlagan holda uning kasbiy mahoratini namoyish qiladi. U yoki bu kasb yo'nalishi bo'yicha o'qituvchining malakaviy tasnifi pedagog kompetensiyasi modeli me'yorlari bilan o'lchanadi, deb yozadilar. V.A.Bolotov va V.V.Serikovlarning fikriga ko'ra, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv talabaning bilimdonligini emas, balki muammolarni hal qila olish qobiliyatini ko'rsatadi va eng birinchi darajadagi zarur qobiliyat deb baholaydi.

Ye.V.Bondorevskaya va S.V.Kulnevichning ilmiy ishlarida talabalar yig'adigan kompetensiya unsurlari faqat asosiy maqsadga, pedagogik faoliyat olib borish uchun yo'naltirilishi yoki zarur bo'lishi lozim deb hisoblaydi. V.S.Yelegina va S.M.Poxlebaev tomonidan Rossiyaning "Fundamentalnoe issledovanie" jurnalining 2012 yil 3 sonida e'lon qilingan "Компетентностный подход к организации обучения студентов в педагогическом вузе" ilmiy maqolasida kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida talaba o'z faoliyatidan ijodiy natija oladi va shu bilan birgalikda, muvaffaqiyat qozonishning usullari, yo'llari, metodlari, yondoshuvlari va uslublarini o'zlashtirib oladi. Aynan talaba tomonidan yaratilgan ijodiy natija talaba bilan o'qituvchining hamkorlikdagi ijodiy natijasi hisoblanadi. Talabaning o'zlashtirishiga baho berishdan maqsad, berilgan ta'limning qanchalar samarador bo'lganligi darajasini aniqlash, bu birinchidan, maktabda olgan nazariy bilimlari darajasini bilish, ikkinchidan undagi kompetensiya shakllanishi, amaliyot paytidagi muvaffaqiyatli faoliyati yanada tezlashadi. Chuqur islohotlarni, modernizatsiyalashni talab qiladigan zamonaviy ta'lim o'z-o'zidan kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo'lgan bo'lajak o'qituvchini tayyorlashni talab qiladi.

Kompetensiyani shakllantirish bo'yicha nafaqat g'arb mamlakatlarida balki mamlakatimizda ham uzluksiz ta'lim tizimining malaka oshirish bo'g'inida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish hozirgi kasbiy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha ko'plam ilmiy va amaliy ishlar qilinmoqda Respublikamizda malaka oshirish muammolari va kasbiy kompetensiya masalalarida B.Adizov, A.A.Ahmadov, A.X.Aminov, T.L.Xurvalieva, N.A.Muslimov, Sh.Saidqulov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Bu tadqiqotlarda asosan malaka oshirish tizimini takomillashtirishning tashkiliy pedagogik masalalari va pedagogik tashxis masalalari o'rganilgan. Abdulla Avloniy nomidagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash institute" olimlari biz yuqorida tilga olgan dunyoviy tajribalardan foydalanilgan holda kompetensiya tushunchasi va uning turlari haqida fikr yuritarkan, T.L.Xurvalieva kasbiy kompetensiyani turlarga bo'lib o'rganishni taklif qiladi.

Dunyo olimlari tavsiya qilayotgan "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini biz yuqorida birlashtirish taklifini kiritdik. Kompetensiya nuqtai

nazaridan yondoshuv haqidagi ilmiy ishlarni tahlil qilar ekanmiz, bu ikki tushuncha haqida turli-tuman fikrlar aytilayotganligini yaqqol sezamiz. A.G.Bermusning fikriga ko'ra, "Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig'ini yagona tizimga birlashtiradi". "Kompetentlik bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o'z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir, – deydi M.A.Choshanov. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassis ning ma'lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi. Noaniq vaziyatlarda faoliyat ko'rsata olish qobiliyati bu kompetentlikdir, deydi O.Ye.Lebedev.[6] Kompetentlik insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy kasbiy hayotiy faoliyatiga asoslanadi, deb yozadi I.A.Zimnyaya. A.V.Xutorskiy "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari ni quyidagicha ajratib olish mumkin, deb hisoblaydi. Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma'lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgazishidir.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim jarayonini tubdan yaxshilashni talab qilar ekan, kompetentli pedagoglarni tayyorlashda ham ana shu talablardan kelib chiqqan holda yondashilishi ko'zga tashlanadi. Kompetensiyalik yoki o'ta mahoratlilik, oliy malakali pedagoglarni tayyorlash zamonamizning eng dolzarb masalasiga, aytish joiz bo'lsa, davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasiga aylangan. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, pedagogik faoliyat jamiyatdagi funksiyalari bo'yicha va kasbiy sifat xususiyatlariga qarab hamda psixologik tamoyillari bo'yicha artist va olimlar tomoniga yaqindir. Pedagog mehnatining xususiyatlari insonni o'qitish va tarbiyalash uchun mo'ljallangan. Yoshlarda insoniy fazilatlarini shakllantirish, mehnat predmeti inson hisoblanishi hamda jamiyatni boshqaruvchi shaxsga bo'lgan ta'siri o'z-o'zidan kompetentlikni talab qiladi tarbiyasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5812-son farmoni.
2. Nosirov.B.G', "Professional ta'lim tizimida masofaviy ta'limdan foydalanish istiqbollari". E-ISSN : 2181-4341. IQRO JURNALI / 2023 VOL–2 ISSUE–1.3 va talabalar ijodining o'sishiga murabbiylik qiladi (Tias, 2022) (Riana va boshq., 2023)
3. Азимова Н. Э. Технология духовно-нравственного воспитания преподавателя профессии онального образования в процессе обучения //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – С. 117-118.
4. Jamoldinova, S. N. (2023). O'qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatdagi ahamiyati. "Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio",1(1), 224-228.
5. Jamoldinova, S. N. (2024).O'qituvchining konfliktologik tayyorgarligining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati.TA'LIM VA TARAQQIYOT Ilmiy-uslubiy jurnal,1(6),44-50.
6. Jamoldinova, S. N. (2024). The role of the teacher's professional competence in conflict situations. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 2(11),15-18.

133. Rivojlangan davlatlar tajribasi: bo'lajak tarbiyachilar uchun sun'iy intellekt kompetensiyalari 1102
Maxsudova Sh.M.
134. Talabalarni xalq og'zaki ijodi vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari 1110
O'rinova N.M., Solijonov Y.A.
135. Kimyo mutaxassisligi magistrantlarining ilmiy-tadqiqot kompetentligini rivojlantirish modeli 1119
Xusanova M.N.
136. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarni kognitiv rivojlantirishda mnemotexnologiyadan foydalanish ahamiyati 1124
Egamberdiyeva D.T.
137. Maktabga tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarida "pape mashe" texnologiyalari asosida ijodiy rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari 1130
Yaqubova M.D.
138. Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga aksiologik munosabatlarini rivojlantirishning asosiy vazifalari 1138
Xushnazarova M.N.
139. STEAM - yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy-izlanishli faoliyat ko'nikmasini shakllantirish 1144
Tashibekova M.X.
140. Boshlang'ich sinflarda raqamli texnologiyalar orqali savodxonlikni rivojlantirish: qk topshiriqlar asosida yondashuv 1151
Mirzaxmedova M.A., Asqarova M.A.
141. Zamonaviy pedagog kompetensiyasi: bugungi kun talabi 1159
Abdualiyeva J.A.
142. Oilaviy-qo'shniçilik jamiyatida tarbiyaviy ishlarni tizimli rivojlantirishning metodologik asoslari 1168
Jumaniyazova Z.A.
143. Ta'lim klasteri sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim-tarbiyasiga doir muammolar va yechimlar. 1176
Tuychiyeva I.I., A'zamova M.N.
144. Tabiiy fanlar yo'nalishidagi talabalarning leksik salohiyatini oshirishda raqamli o'quv platformalarining samaradorligi 1188
Kamalova N.D.
145. Kasbiy ingliz tili muloqotiga o'qitishda madaniyatlararo yondashuv: logistika yo'nalishi misolida 1195
Botirova P.X.
146. Adabiy ta'limda o'quvchilarga estetik tarbiyani badiiy matn tahlil qilish orqali yetkazib berish texnologiyalari 1200
Tillayeva R.T.
147. O'zbek adabiyotida turkiy xalq dostonlarining o'rganilishi 1208
Qosimova Y.J.